



UDK:808.3

Kamola ORIPOVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: k.oripova@gmail.com

DSc, professor O.Adizova taqrizi asosida

BADIIY ASAR YARATISHDA IJODKOR PSIXOLOGIYASINING O'RNI

Аннотация

Maqolada badiiy asar yaratishda ijodkor psixologiyasining o'rne haqida so'z boradi. Unda muallifning individual hayot tarzi, shaxsiy turmushi, hayot yo'li, kechmishi, ruhiyati, ichki kechinmalari, xarakter-xususiyati, biografiyasi to'g'risida fikr bildiriladi. Shuningdek, biografik metod orqali ijodkorning shaxsiy jihatlarining aks ettirilishi haqida so'z boradi. Maqolada ijodkorlarning biografik usuldan foydalanish mahorati yoritilgan bo'lib, bu metod vositasida asarlarda ijodkor biografiyasi hamda psixologiyasiga oid ma'lumotlar berilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Badiiy obraz, adabiyotshunos, biografik usul, psixologiya, xarakter, qomusiy mutafakkir, shoir, zamonaviy yozuvchi, akademik olim, afsona va rivoyat, vatanparvar, ilmparvar.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ ТВОРЦА В СОЗДАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматривается роль психологии автора в создании литературного произведения. Рассматриваются индивидуальный образ жизни, личная жизнь, жизненный путь, опыт, психика, внутренние переживания, черты характера, биография автора. Также рассматривается отражение автором личностных аспектов посредством биографического метода. Отмечается мастерство авторов в использовании биографического метода, основанного на передаче в произведениях сведений о биографии и психологии автора.

Ключевые слова: Литературный образ, литературовед, биографический метод, психология, биографический характер, мыслитель-энциклопедист, поэт, современный писатель, ученый академик, легенда и предание, патриот, ревнитель науки.

THE ROLE OF THE CREATOR'S PSYCHOLOGY IN THE CREATION OF A LITERARY (ARTISTIC) WORK

Annotation

The article examines the role of the author's psychology in the creation of a literary work. It examines the individual lifestyle, personal life, life path, experience, psyche, internal experiences, character traits, and biography of the author. It also examines the author's reflection of personal aspects through the biographical method. It notes the authors' mastery of the biographical method, based on the transmission of information about the author's biography and psychology in their works.

Key words: Literary image, specialist in literature, biographical method, psychologie, biographical character, sophist encyclopedist, poet, modern writer, academic scientist, legend and fable, patriot, sciens adherent.

Kirish. Biografik metod – adabiyotshunoslikdagi alohida ilmiy tadqiqot, badiiy asarga ijodkor shaxsi orqali nazariy-amaliy jihatdan yondashuv usullaridan biri. “Biografiya” lotincha so'z bo'lib, bios – hayot, grapho – yozmoq, “metod” esa yo'li, usul tushunchalarini anglatadi. Demak, “biografik metod” birikmasi mohiyatan “birovning hayoti haqida yozmoq yo'li” ma'nosini bildiradi. Adabiyotshunos Yuriy Borev uni haqli ravishda “badiiy asarni yozuvchi shaxsi orqali o'qish uslubi”, deya ta'riflaydi[1].

Biografik metod yozuvchining hayot yo'lini hamda uning tomonidan yaratilgan badiiy asarni o'zaro juftlikda, birini ikkinchisidan ajratmagan holda, dialektik bog'liqlikda, ijodkor va ijod mahsulini sintezda olib tekshiradi. Shuning uchun biografik metodni ijodkor tarjimai holini o'rganishdan iborat, deb qarab bo'lmaydi. Biografik metodda muallif, ya'ni yozuvchi-ijodkor, avvalo, inson sifatida o'rganiladi. Uning asarlarida yozuvchining hayoti bilan bog'liq nuqtalar aks etgani dalillanadi. Ijodkorning biografiyasiga kirib borilib, shu orqali uning shaxsidagi eng muhim qirralar ochib beriladi. Yozuvchi hayotidagi ayrim e'tiborli holatlar ijodida ham aks etgani asoslanadi. Biografik metod vositasida, asosan, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi o'rganiladi. Ijodkor hayotidagi ma'lum bir voqea-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o'z

aksini topgani aynan biografik metod vositasida dalillanadi. Biografik metod bu jihatdan o'ziga xos imkoniyatlarga egadir.

Biografik metod hujjatlariga tayanib ish ko'radi. Tarixiylik, aniqlik, hujjatlilik unga xos prinsipial talablardan hisoblanadi. Biografik metodning to'la samara bilan ishlashi uchun aniq bir ijodkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatlariga ega bo'lish lozim. Biografik metodda bitiklar, xatlar, avtobiografik matnlar, kundaliklar, memuarlar, qo'lyozmalar – umuman, aniq dalillar muhim o'rin tutadi[2].

Biografik metod tadqiqotchini muallifning individual hayot tarzi, shaxsiy turmushi, hayot yo'li, kechmishi, ruhiyati, ichki kechinmalari, xarakter-xususiyati, bir so'z bilan aytganda, biografiyasi (yoki avtobiografiyasi)ga qiziqtiradi.

Adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, avtobiografiya (tarjimai hol) – insonning o'z-o'zini anglashidan iborat yozma matnning ifoda etsa, biografiya bir insonni boshqa bir insonning anglashi natijasida paydo bo'lgan yozma matndir. Bunday matnlarda, albatta, ijodkorning tug'ilishi va vafoti, oilaviy sharoiti, oila a'zolari, farzandlari, yoru birodarlari, ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, yashash joyi, ma'lumoti, faoliyati, diniy e'tiqodi va boshqalar e'tiborga olinadi. Adabiyotshunos Bahodir Karimov biografik metod xususida to'xtalar ekan, shuni nazarda tutib, uni avtobiografiyadan farqlash

muhimligini alohida eslatib o'tadi: "Bu metodni tarjimai holdan iborat tarzida sodda tushunmaslik kerak. Zotan, biografik metod ijodkor tarjimai holining oddiy xronologik tavsif va tasnifi emas; yozuvchining tug'ilgan yili, yashagan joyi yoki muhiti, asarlarining yozilgan yili va, nihoyat, ijodkorning vafot etgan yili – bularning bari biografik ma'lumotlar hisoblanadi... Bunda biografik voqelikning izi asarlarda kolishini hech kim inkor kilmaydi"[3].

Ta'kidlanganidek: "Biografik metod adabiyotni shunday o'rganish usuliki, bunda yozuvchi biografiyasi va shaxsiyatiga badiiy ijodining asosiy belgilovchi momenti tarzida qaraladi"[4].

B.Karimov fikricha, badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi[5].

Ijodkor merosini to'laqonli tushunish va xolis baholash uchun uning hayot yo'li haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Bunda biografik metodga tayanib ish yuritish esa muhim samara beradi. Shu ma'noda adabiyotshunos B.Karimovning "Biografik metodga o'zbek adabiyotshunosligi tarixida jiddiy e'tibor berilmadi", – degan fikriga qo'shilish biroz qiyin. Chunki milliy adabiyotshunosligimiz tarixida hozirgacha qanchadan-qancha nom qoldirgan ijodkorlar merosi muayyan darajada tadqiq qilingan. Albatta, ularni to'laqonli tushunish va xolis baholash maqsadida bu ijodkorlarning hayot yo'li bilan bog'liq ma'lumotlarga ham imkon qadar tayanilganini inkor qilib bo'lmaydi.

B.Karimovning bu borada yana aytgan "biografik metod aynan «psixobiografiya», ya'ni yozuvchining psixologik biografiyasi tarzida adabiyotshunoslikka tatbiq etilmadi".[6] – degan fikrida esa jon bor. Negaki, biografik metod badiiy asarni uning muallifi hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutar ekan,[7] tabiiyki, o'sha asarda ijodkorning ichki ruhiy kechinmalari, o'y-fikrlari, orzu-istaklari, alam-iztiroblari, armon-intilishlari, ko'rgan-bilganlari, boshidan o'tkazgan yaxshi-yomonliklar, orttirgan hayotiy tajribalari va bilimlari aks etishini e'tibordan chetda qoldira olmaydi. Ijodkorning bunday psixobiografiyasi esa ma'lum ma'noda, uning badiiy asarlaridagi vokea-hodisalar bayonida, yaratgan obrazlari tizimida o'z ifodasini topadi. Mana shundan ijodkorning individual mahorati, yaratgan asarining originalligi yuzaga chiqadi.

Natijalar va muhokama. Biografik metod bilan ish ko'rilganda, tadqiqotchi bir necha muhim omillarga tayanib ish yuritadi. Bu omillar esa quyidagilardan iboratdir:

1. Ijodkorning psixologizmi. Ijodkorning ichki ruhiy olami, uning turli psixologik holatlari va vaziyatlari, qalb kechinmalari psixologik omil sifatida biografik metod uchun muhim sanaladi. Shundan kelib chiqib, ko'p hollarda biografik metod "psixobiografiya" deb ham yuritiladi. Bunda badiiy ijodning yosh psixologiyasi bilan mushtarak jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Psixologik holatlarni turli rakurslarda, butun nozikliklari bilan insoniyatga xos bo'lgan umumpsixologik holatlar negizida yoritishga va asoslashga urinish seziladi. Tadqiqotchining o'tkir nazari, iste'dodi, tajribasi orqali muallifning o'z boshidan kechirgan ruhiy holatlaridan chin iqrori dalillanadi. Muallifning faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan ichki dunyosi uning asl hayoti ekani ochib beriladi. Muallif o'z ichki dunyosini tasvirlar ekan, aslida uni yashirishga uringani ko'rsatiladi. Go'yo u bironing hayoti xususida gapirayotgandek bo'lsa-da, aslida o'zini aytib berayotgani, o'z hislarini targ'ib etayotgani anglashilib turadi. U o'zini bo'lganidek emas, xohlaganidek ko'rsatadi. Faqat buni "o'zim" degani cho'chiydi yoki andisha qiladi. Bunda muallif yaratgan obraz uning hislarini ifodalash vositasiga aylanadi.

Aytalishicha, "psixologik omil biografik tadqiqot uchun ikki yoqlama ahamiyat kasb etadi. Buning birinchisi, bevosita

ijodkorning biografik dunyosi, real borlig'i bilan bog'liq bo'lib, mazkur individuumga xos psixobiologik, psixosotsiologik unsurlarni namoyon qiladi. Ikkinchisi, ayni unsurlarning badiiy asarda, voqelik va obrazlar talqinidagi o'rni aniqlashga xizmat qiladi. Buning ibtidoiy shakllari ilk biografik tadqiqotlarda ko'ringan bo'lsa, keyinchalik ijod psixologiyasi degan maxsus ilmiy yo'nalishga asos bo'ldi".

Ijodkorning geni, insoniy biologik xususiyatlari va taqdiri. Biografik metod orqali ijodkor individualligi muommasi tadqiqot markaziga qo'yilar ekan, unda genetik-biologik faktor yetakchi o'ringa ko'tarilishi tabiiy. Binobarin, adabiyot tarixida ijodiy jarayonga ota-bobosi, tog'asi, umuman aytganda, biror yaqin qarindoshi ta'siri ostida, aniqrog'i, ular bilan qondoshligi sababli kirib kelganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun ular ijodkorlikni o'zlari uchun taqdir ishi, Olloh ne'mati deb qaraydilar va unga mas'uliyat bilan yondashadilar. Bu o'rinda Navoiyning shoir tog'alaridan, Maxtumqulning bobosi va otasidan, Pushkinning shoirtabat amakisidan, Ogahiyning amakisi Munisdan va hokazo ta'sirlanganini eslash kifoya. Yoxud aksariyat shoir va yozuvchilar bolaligida onasidan, buvisidan eshitgan alla va ertaklari, xalq qo'shiqlari o'zi uchun ijod eshigini ochishga kalit bo'lganligini e'tirof etadilar. Bunga Hamid Olimjonning Komila enasidan eshitgan ertaklari haqidagi fikrlari yorqin dalildir. Yana uning yoshligida bobosining yaqin o'rtog'i bo'lgan Fozil Yo'ldosh o'g'lidan qayta-qayta tinglagan "Alpomish" dostoni haqida keyinchalik "Bu doston mening shoirlik beshigim bo'ldi" degan qaydi ildizi qadim ajdodlarimiz ongi va ruhiyati bilan tutash "genetik xotira"mizga borib taqalishini inkor etish mushkul.

Shu kabi hayotiy vaziyatlarni inobatga olib, Yu.Borev: "San'atkorning individual taqdiri uning ijodini talqin etishda kalit vazifasini o'taydi", – deydi[8].

Ijodkorning maishiy turmushi. Bunda ijodkorning shaxsiy hayoti: oilaviy turmushi, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari bilan munosabati, yashash tarzi, uy-joyi, jamiyatdagi mavqei, mansabi, unga aloqador odat va qiliqlar, qiziqishlar, xatti-harakatlar, mimikalar, shaxsiy buyumlar, hatto transport vositalari, jonivorlarga munosabati va boshqalar e'tiborga olinadi. Sh.O. Sent-Byov yozganidek: "...ijodkorni oila davrasida, o'ziga xos odatlari bilan tasavvur eta olish" lozim. Negaki, "buyuk ijodkorlar ham oddiy odamlar kabi mayda turmush tashvishlaridan xoli bo'lmaydilar".[9]

Shu jihatdan Abdulla Qahhorning asarlarida nega ba'zan ovqatlanish holatlari juda ta'sirchan ifodalangani diqqatni tortadi va buning sababi bilan qiziqtiradi. Bir qarashda buni hamma ilg'ayvermaydi ham. Bu jihatdan adibning "Shilpildoq" hikoyasi, rafiqasi Kibriyo Qahhorova shoshib chuchvara qilib, ko'p chuchvaralar qozonga qaynatish uchun solinganda ochilib ketib, go'shti xamiridan ajralib, mohiyatini yo'qotgani uchun xijolat tortayotganida "Xijolat bo'lmang, chuchvara yemoqning ma'nisi go'shtni xamirga o'rab yeyish bo'lsa, shunday qilib yeyaveramiz" degan kinoyasi e'tiborlidir.[10] Mazkur dalillar, ayni paytda, adibning milliy ovqatlarimizni sevganidan, ularni juda miriqib iste'mol qilishni yoqtirganidan dalolat beradi.

Lekin asarlarda ijodkor biografiyasi, maishiy turmush tarziga xos ma'lumot va dalillar xronologik izchillikda, muayyan ketma-ketlikda ifoda etiladi, degan qat'iy xulosaga kelmaslik lozim. Ijodkorning maishiy hayoti va ijod jarayoni bilan bog'liq kattayu kichik holatlar qanday ko'rinishda berilishidan qat'i nazar biografik tadqiq jarayonida muhim o'rin tutadi va muayyan ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorning falsafiy dunyoqarashi. Har bir sohada ijod qiluvchi inson hayoti davomida o'zi egallagan bilim va tajribalari asosida anglagan hayot haqiqatini bayon etishga intiladi. Bu esa uning falsafasini (dunyoqarashini) namoyon

etadi. Ijodkor shaxsiga va u yaratgan asarga biografik yondashuv, ayni paytda, o'sha ijodkorning inson sifatida falsafiy dunyoqarashi shakllanishiga nimalar, qanday ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma'naviy omillar ta'sir ko'rsatganini aniqlashga da'vat qiladi. Natijada biografik metodning vazifalari ko'lami kengayadi. Endi o'sha ijodkorning yashagan ijtimoiy muhiti (jamiyat va oila), u mulqotda bo'lgan insonlar (ota-onasi, do'stlari, ustozlari va hokazo), ilmiy yoki badiiy ijodga ilhomlantirgan doiralar, to'garaklar, u o'qigan kitoblar, ijtimoiy mavqei, jamoatchilikdagi o'rni va hokazolar singarilarni jiddiy o'rgana boshlaydi. Tadqiqotchining bu borada to'plagan ma'lumotlari esa ijodkor falsafasini shakllantirgan omillarni chuqur bilib olishga zamin hozirlaydi.

Olimlarning fikricha, badiiy ijodda falsafiy omilning namoyon bo'lishi ijodkor hayotidagi tragik vaziyatlar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Ijodkorning filologik, adabiy-estetik bilimlari. Bu omil o'ziga xos yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo'ladi va biografik metodda yetakchilik qiladi. Negaki, har qanday ijod turi va shakli uchun so'z asosiy ifoda quroli sanaladi. Har qanday fikr yoki ilg'angan, anglangan va his qilingan voqelikni ifodalashda so'zga tayanib ish yuritiladi. Bundan ko'rinadiki, biografik metod tayanadigan asosiy kuch ham so'zdir. Bunda ijodkor so'z bilan ishlashini inobatga olib, uning so'zga badiiy jilo berishiga ahamiyat qaratiladi. Zero, badiiy asar matnidagi har bir tovush, har bir so'z va gap ham ijodkor shaxsiyatidan darak bera oladi. Agar ular sintezlab o'rganilsa, muayyan natijalarni bera oladi. Ayni paytda ijodkorning ijodiy individualligini, badiiy mahorat qirralarini, uning tomonidan bunyod etilgan poetik kashfiyotlarni, eng muhimi, o'ziga xos iste'dodi va iqtidorini anglashga yo'l ochadi. Shunga qarab, uning muayyan tarixiy davr yoki muhitda tutgan o'rni belgilanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Abdulla Qahhor tabiatan kamgap bo'lsa-da, g'ayratli inson bo'lgan. Ehtimol, uning ijod uslubiga xos muhim belgi: badiiy matnni yaratishda kam

so'zdan foydalanish, so'zni o'ta iqtisod qilib, o'rinli qo'llash fazilati mana shu tabiiy xususiyati natijasidir.

Biografik metodning muhim omillari sifatida ko'rsatilayotgan bu faktorlar alohida sanalayotgan esa-da, ko'pincha tadqiq jarayonida biri-ikkinchisini to'ldirib, qo'llab-quvvatlab keladi. Tadqiq jarayonida ulardan qaysi biridir bo'rtib ko'rinsa-da, aslida mantiqiy yaxlitlik hosil qilishini inkor qilib bo'lmaydi.

Biografik metod tatbiq qilingan asarlar, odatda, uch ko'rinishda namoyon bo'ladi:

birinchisi – ijodkor shaxsiyatini markaziy o'ringa qo'yib o'rganishga asoslanuvchi, akademik yo'nalishga yaqin biografik tadqiqotlar. Bunga Sh.Sent-Byov, A.Morualarning "Adabiy portretlar" kitoblarini, "Ajoyib kishilar hayoti" (JZL) seriyasidagi asarlarni misol qilib ko'rsatish mumkin;

ikkinchisi – adabiy portret janridagi asarlar. Masalan, A.Moruaning «Uch Dyuma», «Prometey yoxud Balzak hayoti» yoki Yan.Parandovskiy, S.Sveyg kabilarning asarlari;

uchinchisi – ma'lum bir ijodkor-shaxsning hayoti asos qilib olingan biografik romanlar va biografik qissalar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, biografik metod asosida ish yuritganda munaqqid yozuvchi haqidagi ma'lumotlarga oddiy axborot manbai sifatida yondashmaydi, balki undan mantiqli nuqtalar, o'rnak bo'larli jihatlar izlaydi. Zamonasining o'tkir adabiy tanqidchisi Sent-Byov o'zining talab va qoidalari bilan biografik metodni adabiyotshunoslikda san'at darajasiga ko'tardi. Bu metod Sent-Byov faoliyatining ajralmas qismiga aylanib, boshqa tanqidchilar faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. U muallif biografiyasidagi mayda-chuyda elementlarigacha sinchkovlik bilan o'rganish – geneologiya, oilaviy muhiti, ma'lumoti, tashqi ko'rinishi, ruhiyati, sevgi va muhabbat munosabatlari, iqtisodiy ahvoli, ruhiy tabiatini batafsil ko'rsatib berishni targ'ib qildi. U "biror-bir yozuvchining asari, avvalombor, uning hayoti aksi bo'lishi va uni bayon etishi lozim" degan fikrga keldi. Uning shoirona maqsadi va shaxsiy sifatleri ijodkorning psixologizmini o'rganishga qaratildi.

ADABIYOTLAR

1. Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981. – С.56.
2. Dilthey W. Gesammelte Werke. Bd. VII. Stuttgart, 1992. – S.246.
3. Каримов Б. Биографик метод / Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 166.
4. Литературный энциклопедический словарь. – М. 1987. – С.54.
5. Каримов Б. Биографик метод / Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 166-176.
6. Каримов Б. Биографик метод / Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 166-176.
7. Куронов Д. Биографик метод / Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
8. Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981. – С.56.
9. Charles-Augustin Sainte-Beuve. Chateaubriand jugé par un ami intime en 1803. – Paris, 1865. – P.15.
10. Қаххорова К. Чорак асп хамнафас. (Ўзбекистон халқ ёзувчиси Абдулла Қаххор ҳақида хотиралар). – Т.: Ёш гвардия, 1987. – 96 б.